

**ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI YARATISHDA
DAVLAT VA JAMIYAT HAMKORLIGI**

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА В СОЗДАНИИ
СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ
COOPERATION BETWEEN THE STATE AND SOCIETY IN CREATING
A MODERN EDUCATION SYSTEM

Nasriddinov Nuriddin

Orzuqulov Ahmadullo

Andijon davlat pedagogika instituti

nasriddinovnuriddin017@gmail.com +998 50 718 85 55

orziqulovahmadullo@gmail.com +998 93 8241384

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimini yaratishda davlat va jamiyatning hamkorligi muhokama qilinadi. Mazkur mavzu doirasida davlatning ta'lim siyosatini belgilashdagi roli, maktabgacha, umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish, pedagog xodimlarning malaka va ijtimoiy kafolatlari yoritiladi. Shuningdek, jamiyatning — ota-onalar, nodavlat tashkilotlar, mahalliy hamjamiyat va oliy ta'lim bitiruvchilari — ta'lim jarayonida faol ishtiroki, resurslarni birlashtirish va innovatsion loyihalarni tatbiq etishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Maqola davlat va jamiyat hamkorligi mexanizmlari, ta'limda raqamli texnologiyalar, inklyuzivlik va interaktiv o'quv jarayoni orqali sifatni oshirish istiqbollari tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Modernizatsiya, innovatsiyalar, texnologiya integratsiyasi, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim, fanlararo ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim, tanqidiy fikrlash, uzluksiz ta'lim, kapital, barqaror rivojlanish

Annotation: This article discusses the cooperation between the state and society in creating a modern education system. Within this topic, the role of the state in shaping education policy, financing preschool, general, secondary specialized, and higher education systems, as well as the professional and social guarantees for teaching staff, are highlighted. The article also emphasizes the active participation of society — including parents, non-governmental organizations, local communities, and higher education graduates — in the educational process, resource integration, and the implementation of innovative projects. The study analyzes mechanisms of state-society cooperation and prospects for improving quality in education through digital technologies, inclusivity, and interactive learning processes.

Keywords: modernization, innovations, technology integration, digital technologies, online learning, interdisciplinary education, project-based learning, critical thinking, lifelong learning, capital, sustainable development

Kirish

Ta'lim — jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim omil bo'lib, har bir fuqaroning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimini samarali tashkil etish nafaqat davlatning siyosiy va moliyaviy mas'uliyatiga, balki jamiyatning — ota-onalar, nodavlat tashkilotlar, mahalliy hamjamiyat va oliy ta'lim bitiruvchilari — faol ishtirokiga bog'liq. Shu sababli davlat va jamiyatning hamkorligi ta'lim sifatini oshirish va uni barqaror rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi har bir jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi, balki insonning shaxs sifatida rivojlanishi, ijtimoiy mas'uliyat hissini o'stirish va jamiyatga foydali kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimini samarali tashkil etish nafaqat davlatning siyosiy va moliyaviy mas'uliyatini, balki jamiyatning — ota-onalar, nodavlat tashkilotlar, mahalliy hamjamiyat va oliy ta'lim bitiruvchilarining faol ishtirokini talab qiladi.

Asosiy qism:

1. Ta'limning jamiyat rivojidagi ahamiyati

Davlat ta'lim tizimini rivojlantirishda markaziy rol ni o'ynaydi. U ta'lim siyosatini belgilaydi, maktabgacha, umumiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini moliyalashtiradi, pedagog xodimlarning malaka va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga, davlat ta'lim standartlarini belgilab, sifat nazoratini amalga oshiradi va innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lim jarayonini modernizatsiya qiladi. Inklyuziv va teng imkoniyatlarga ega ta'lim tizimi yaratish ham davlatning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Jamiyatning ham ta'lim tizimida katta roli bor. Ota-onalar bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi va ularni qo'llab-quvvatlaydi, nodavlat tashkilotlar va xayriya fondlari maktab va universitetlarda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Mahalliy hamjamiyatlar ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yordam beradi, oliy ta'lim bitiruvchilari va mutaxassislar esa mentorlik va tajriba almashinuvi orqali o'quv jarayonini boyitadi. Jamiyatning ishtiroki ta'limni real ehtiyojlarga moslashtirish, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish va innovatsion loyihalarni tatbiq etish imkonini beradi.

Davlat va jamiyatning hamkorligi turli mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, hamkorlik kengashlari, hamkorlik shartnomalari va grantlar, jamoatchilik nazorati va ochiq muhokamalar ta'lim siyosati va o'quv dasturlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Innovatsion loyihalarni tatbiq etish esa ta'lim sifatini oshirish, resurslarni samarali ishlatish va o'quv jarayonini interaktiv qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, amaliy va innovatsion yo'nalishlarni kuchaytirish, inklyuziv va teng imkoniyatlarni ta'minlash, ochiq va

interaktiv o'quv jarayonini yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, zamonaviy ta'lim tizimini yaratishda davlat va jamiyatning birgalikdagi hamkorligi ta'lim sifatini oshirish, uning teng va samarali bo'lishini ta'minlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

2.Davlatning zamonaviy ta'lim tizimidagi roli

Davlatning huquqiy va moliyaviy kafolatlari, jamiyatning faol ishtiroki va innovatsion yondashuvlar birgalikda o'quvchilarda bilim va ma'naviyatni rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va ta'limning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat davlat siyosati, balki jamiyatning ijtimoiy mas'uliyatini ham talab qiladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi. Dastur doirasida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarni yaratish va rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi. Mamlakatimiz maktabgacha ta'lim muassasalarida 6 ming 100 qisqa muddatli guruh tashkil etiladi. Ularni, birinchi navbatda, qishloq joylarda tashkil etishga e'tibor qaratiladi. Bunday guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Shu asosda har yili 305 mingdan ortiq 5-6 yoshdagi bolani maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalarning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash va ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish orqali maktab ta'limiga tayyorlashning muqobil tizimi ham joriy etiladi. Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi 1,5 barobarga oshadi. 2021-yilga kelib mamlakatimizda maktabgacha ta'lim muassasalari 1 million 109 mingdan ortiq bolani qamrab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2017-yilda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinadi. Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga, oldingidan farqli ravishda yozish va o'qishni yanada yaxshiroq o'rganishiga xizmat qiladi.

3.Davlat va jamiyat hamkorligi mexanizmlari

Fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy axborot texnologiyalari yangiliklarini inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun 18 umumta'lim fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari takomillashtirildi. Ushbu davlat ta'lim standartlari asosida bosqichma-bosqich darslik va o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirishda umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan keng foydalaniladi.

Ta'lim mazmuni umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlariga kiritilgan mavzular asosida ta'limning barcha turlarida uzviylik, uzluksizlik va davriylikni ta'minlaydi.

O'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar uchun o'quv-metodik materiallar, multimediali axborot-ta'lim resurslari ishlab chiqilib, o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etiladi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga prinsipial yangi yondashuvning joriy etilishi orqali o'quvchilarda olgan bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, mustaqil ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalar rivojlantiriladi.

– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni bilan taraqqiyotimizning kelgusi besh yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berildi. Harakatlar strategiyasi ijrosi doirasida ta'lim tizimida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar, belgilangan vazifalar haqida ma'lumot bersangiz.

– Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi – davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani taraqqiy ettirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish bo'yicha aniq, hayotiy islohotlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilab berilgan. Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham o'rin olgan.

Farmonga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa:

Zamonaviy ta'lim tizimini yaratishda davlat va jamiyatning hamkorligi ta'lim sifatini oshirish, uning teng va samarali bo'lishini ta'minlashning eng muhim omili hisoblanadi. Davlat ta'lim siyosatini belgilash, moliyalashtirish, pedagog xodimlar malakasini oshirish va ta'lim standartlarini nazorat qilish orqali tizimni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, jamiyatning — ota-onalar, nodavlat tashkilotlar, mahalliy hamjamiyat va oliy ta'lim bitiruvchilarining — faol ishtiroki resurslarni birlashtirish, innovatsion loyihalarni tatbiq etish va o'quv jarayonini real ehtiyojlarga moslashtirish imkonini yaratadi. Davlat va jamiyatning birgalikdagi yondashuvi o'quvchilarda bilim va ma'naviyatni rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va

ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat davlat siyosati, balki jamiyatning ijtimoiy mas'uliyatini ham talab qiladigan kompleks jarayon sifatida qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1. YUNESKO. (2020). "Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun ta'lim: o'quv maqsadlari". Parij: YuNESKO.
2. Xan, S. va Al-Jaloud, S. (2019). "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limga ta'siri: tadqiqotlarga sharh". Ilg'or kompyuter fanlari va ilovalari xalqaro jurnali, 10(2), 321-327.
3. 21-asr mahorati uchun hamkorlik. (2007). "XXI asr ta'limi uchun asos". Tucson, AZ: 21-asr ko'nikmalari uchun hamkorlik.
4. Darling-Hammond, L. va Richardson, N. (2009). "O'zbekiston ta'lim tizimidagi tadqiqot sharhi/islohoti, samaradorligi va tengligi". Nyu-York, Nyu-York: Osiyo jamiyati.
5. Jahon banki guruhi. (2020). "O'zbekiston ta'lim sohasi sharhi: XXI asr ta'lim tizimini modernizatsiya qilish". Vashington, Kolumbiya okrugi: Jahon banki guruhi.